

“TASDIQLAYMAN”



Turizm qo‘mitasi raisi

U.Shadiyev

2023-yil “25” 09

**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi
Turizm qo‘mitasining Komplayens nazorat, korrupsiyaga qarshi kurashish va
ichki audit bo‘limining**

NIZOMI

Toshkent – 2023

Turizm qo'mitasining Komplayens nazorat, korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki audit bo'limi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Turizm qo'mitasining Komplayens nazorat, korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki audit bo'limining (keyingi o'rinlarda Bo'lim deb ataladi) maqomi, vazifalari, funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi va faoliyatining tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo'lim Turizm qo'mitasining (keyingi o'rinlarda Qo'mita deb ataladi) tarkibiy bo'linmasi bo'lib, ichki o'rganish tizimini doimiy monitoring qiluvchi qism hisoblanadi hamda to'g'ridan-to'g'ri Raisga bo'ysunadi va uning oldida hisobot beradi;

3. Bo'lim komplayens nazorat, ichki audit va qisqa muddatli monitoringlarni o'tkazish, shuningdek o'tkazilgan ichki audit va qisqa muddatli monitoring natijalari to'g'risida hisobotlar tayyorlashda mustaqildir;

4. Bo'lim xodimlarini Qo'mitaning boshqa tarkibiy bo'linmalariga tegishli bo'lgan ishlarga, shuningdek uning vakolatiga kirmaydigan dastur va loyihalarni tayyorlash yoki amalga oshirishga jalb qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

5. Bo'lim Qo'mitaning barcha ichki hujjatlari talablariga rioya etadi (vakolati doirasiga kirmaydigan hujjat talablari bundan mustasno).

6. Bo'lim Qo'mita markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va barcha tizim tashkilotlariga borgan holda ularning vakolatiga kiradigan ishlarni joylarda to'g'ri tashkil etilishini o'rganadi, mavjud muammolarni aniqlab, ularning bartaraf etilishini o'rganish qiladi va kelgusida shu kabi holatlarning oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilab beradi.

2-bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari

7. Quyidagilar bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

komplayens nazorat, ichki audit va o'rganish tadbirlarini qonun hujjatlariga va mazkur Nizom talablariga mos ravishda o'tkazish;

Qo'mita markaziy apparati, uning hududiy organlari, tasaruffidagi korxona, muassasa va tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlari va funksional vazifalarning bajarilishi ustidan o'rganishni amalga oshirish;

Qo'mita markaziy apparati, uning hududiy organlari, tasaruffidagi korxona, muassasa va tashkilotlari moliya-xo'jalik faoliyati ustidan o'rganishni amalga oshirish;

Qo'mita markaziy apparati, uning hududiy organlari, tasaruffidagi korxona, muassasa va tashkilotlarida o'tkazilgan o'rganish tadbirlari davomida aniqlangan xato va kamchiliklarni to'liq bartaraf etilishini va takroran yo'l qo'yilmasligining oldini olish bo'yicha tadbirlarni belgilash;

tizimdagi korxona, tashkilot va muassasa mansabdor shaxslaridan ichki audit obyekti ro'yxatini shakllantirish bilan bog'liq savollar bo'yicha hujjatlar (oldingi o'tkazilgan o'rganish materiallari), ma'lumotlar, maxfiy axborot toifasiga oid ma'lumotlar bundan mustasno, shu jumladan elektron shaklda, og'zaki va yozma tushuntirishlar talab qilib olish;

o'z vakolati doirasida o'rganish obyekti mansabdor va javobgar shaxslaridan o'rganishni o'tkazishda yuzaga kelayotgan savollar bo'yicha tushuntirishlar hamda o'rganish natijalari bo'yicha hujjatlarni imzolashni talab qilish;

tizimdagi korxona, tashkilot va muassasalarning moliyaviy xarajatlarini rejalashtirish, mablag'lardan samarali foydalanish, shuningdek sohaga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish hamda ularni Qo'mita rahbariyatiga taqdim qilish;

turizm to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llashda qonuniylikni ta'minlash va ularga rioya qilinishi bo'yicha tadbirlarning o'tkazilishi yuzasidan o'rganishlar o'tkazish;

aniqlangan tizimli ravishda yo'l qo'yilayotgan qoidabuzarlik va kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda bunday holatlarga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslarning mas'uliyatini oshirish yuzasidan takliflar kiritish;

Bo'lim xodimlarini o'qitish va qayta tayyorlash rejasini ishlab chiqish va Qo'mita rahbariyatiga tasdiqlash uchun kiritish hamda ularning ijro etilishini ta'minlash;

davlat moliyaviy o'rganishini amalga oshirishda vakolatli idoralar tomonidan kiritilgan taqdimnomalarning bajarilishi monitoringini amalga oshirish;

o'rganish tadbirlarini o'tkazish vaqtida so'ralgan hujjatlar va materiallarni o'rganish obyekti mansabdor shaxslari tomonidan taqdim etmaslik yoki o'z vaqtida taqdim etmaslik holatlari bo'yicha dalolatnomalar tuzish;

o'rganish obyekti mansabdor va mas'ul shaxslarining tushuntirish berish va o'rganish natijalari bo'yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlarni imzolashdan bosh tortganliklari to'g'risida dalolatnomani tuzish;

o'rganish tadbirlari natijalariga doir hujjatlarda bayon etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi, xolisligi va to'liqligini ta'minlash;

tegishli hujjatlarga asoslangan holda o'tkazilgan monitoring, tahlil va o'rganish natijalarini rasmiylashtirish;

taqdim etilgan yoki Bo'lim vazifalarini bajarish munosabati bilan ularga ma'lum bo'lgan sirlarni tashkil etadigan axborotlarning maxfiyligiga rioya qilish;

olingan hujjatlarning saqlanishi va qaytarilishini ta'minlash;

aniqlangan qonun buzilishlarni bartaraf etish yuzasidan, maqsadsiz va noqonuniy xarajatlarni, pul mablag'lari va tovar-moddiy boyliklar kamomadini undirish, javobgarlikka tortish yuzasidan o'rganish obyekti rahbariyatiga tegishli taklif va taqdimnomalar kiritish;

o'rganish materiallarini Qo'mitaning ma'lumotlar bazasiga umumlashtirish;

o'rganish tadbirlari natijasida o'rganish obyekti mansabdor shaxslarining harakatlarida jinoyat belgilari aniqlangan taqdirda Qo'mita rahbariyatiga axborot berish va belgilangan tartibda chora ko'rish bo'yicha takliflar kiritish;

o'rganish tadbirlari natijasida o'rganish obyekti mansabdor shaxslarining harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik aniqlangan taqdirda materiallarni Qo'mita rahbariyati orqali ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish vakolatiga ega bo'lgan organlarga berish;

korupsiyaning oldini olish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha majburiyatlarni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida va to'liq bajarish;

manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'ladigan holatlar bo'yicha Qo'mita rahbariyatiga xabar berish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish;

Bo'lim tomonidan vazifa va funksiyalari bajarilishida korrupsiya holatlarini oldini olish bo'yicha tegishli, shu jumladan manfaatlar to'qnashuvini hal etish choralari ko'rish;

Qo'mitaning tarkibiy tuzilmalari va hududiy boshqarmalarida Bo'lim tomonidan o'tkaziladigan o'rganishlar o'tkazish davrida xato va kamchiliklarni haqqoniy, to'g'ri va xolisona tarzda aniqlash, aniqlangan holatlar yuzasidan ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda Qo'mita rahbariyatiga taqdim etish;

ish yuritishni belgilangan tartibda olib borish, o'rganish bo'yicha to'plangan hujjatlarning nusxasini qonun hujjatlarida belgilangan muddatda saqlash hamda hisobini yuritish.

yuklatilgan vazifalarni barcha tizim tashkilotlari tomonidan o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash maqsadida vertikal o'rganishni amalga oshirish.

8. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) Qo'mita markaziy apparati, uning hududiy organlari, tasarrufidagi korxona, muassasa va tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlari va funksional vazifalarning bajarilishi ustidan o'rganishni amalga oshirish sohasida:

turizm to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llashda qonuniylikni ta'minlash va ularga rioya qilinishi bo'yicha tadbirlarning o'tkazilishi yuzasidan o'rganishlar o'tkazadi;

xodimlar tomonidan funksional majburiyatlar qay darajada ijro etilayotganligini, turizm qonunchiligi o'rganishini tashkil etishda hamda boshqa majburiyatlarni bajarilishi borasida amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganadi;

o'tkazilgan o'rganishlar natijalari bo'yicha aniqlangan tizimli ravishda yo'l qo'yilayotgan qoidabuzarlik va kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda bunday holatlarga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslarning mas'uliyatini oshirish yuzasidan takliflar kiritadi;

o'tkazilgan o'rganishlar natijalari bo'yicha aniqlangan davlat budjetiga yetkazilgan moddiy zararni qaytarish choralarini ko'radi;

b) Qo'mita markaziy apparati, uning hududiy organlari, tasaruffidagi korxona, muassasa va tashkilotlari moliya-xo'jalik faoliyati ustidan o'rganishni amalga oshirish sohasida:

Qo'mita markaziy apparati, uning hududiy organlari, tasaruffidagi korxona, muassasa va tashkilotlarining budjet va xo'jalik faoliyati bo'yicha xarajatlar smetalari ijrosi yuzasidan tekshirishni amalga oshiradi;

zarur hollarda rahbariyatining alohida ko'rsatmasi yoki topshirig'iga asosan Qo'mita tarkibidagi tuzilmalar va hududiy boshqarmalar va tuzilmalarning moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha o'rganish o'tkazadi;

v) Qo'mita markaziy apparati, uning hududiy organlari, tasaruffidagi korxona, muassasa va tashkilotlarida o'tkazilgan o'rganish tadbirlari davomida aniqlangan xato va kamchiliklarni to'liq bartaraf etilishini va takroran yo'l qo'yilmasligining oldini olish bo'yicha tadbirlarni belgilash sohasida:

o'tkazilgan o'rganishlar natijasida aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etish hamda kelgusida takrorlanishini oldini olish bo'yicha tegishli hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari tomonidan chora-tadbirlar ishlab chiqilishini va bajarilishini o'rganish qiladi;

o'tkazilgan o'rganish natijalari bo'yicha to'plangan hujjatlarni umumlashtiradi, boshqarmaning tarkibiy tuzilmalari va hududiy tuzilmalar tomonidan turizm to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilmayotganligi sabablarini tahlil qiladi va uning bajarilishini ta'minlash borasida takliflar kiritadi;

o'tkazilgan o'rganishlar natijalari bo'yicha aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish va bunday holatlarni kelgusida yo'l qo'yilishining oldini olishga doir takliflar ishlab chiqadi va bu borada profilaktik ishlarni tashkil etadi;

g) yuklatilgan vazifalarni markaziy apparat, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari tomonidan o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash maqsadida vertikal o'rganishni amalga oshirish sohasida:

Qo'mita markaziy apparati, hududiy boshqarma va tizim tashkilotlari faoliyatida qonun buzilishiga yo'l qo'yilgan holatlar to'g'risida shikoyat, ariza, taqdimnoma va boshqa ma'lumotlar kelib tushganda ushbu holatlar yuzasidan o'rganishlar o'tkazadi;

Qo'mita markaziy apparati, hududiy boshqarma va tizim tashkilotlari moliya-xo'jalik faoliyati yuzasidan tahlillar o'tkazib boradi;

Qo'mita markaziy apparati, hududiy boshqarma va tizim tashkilotlari faoliyatiga oid masalalar bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari, idoraviy hujjatlar ishlab chiqadi hamda ularni takomillashtirib borish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

tarkibiy tuzilmaga yuklatilgan vazifalarni hududiy boshqarma va tuzilmalarning tomonidan bajarilishi ustidan o'rganish qiladi va ularga amaliy yordam ko'rsatadi;

Vazirga o'z faoliyati to'g'risida ma'lumot va takliflar hamda amalga oshirilgan ishlari bo'yicha hisobotlar berib boradi.

d) Qo'mita markaziy apparati, hududiy hududiy boshqarma va tizim tashkilotlari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:

Qo'mita markaziy apparati, hududiy hududiy boshqarma va tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi va ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi;

Qo'mita markaziy apparati, hududiy hududiy boshqarma va tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan o'xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida davlat hokimiyatining boshqa organlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo'nalishlari haqida ma'lumot to'playdi;

maxsus axborot aloqa kanallari orqali barcha tasarrufiy tashkilotlar xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va o'rnatilgan tartibda choralar ko'radi;

xizmat tekshiruvlari yakuni bo'yicha berilgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumotlarning to'g'ri va to'liq aks ettirib borilishini o'rganish qiladi;

korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo'ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining ish natijalarini tahlil qiladi va xodimlarning korrupsiyaviy xavf-xatarlardan xabardorligini oshirish maqsadida tahliliy materiallarni manfaatdor shaxslarga yetkazadi;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarning mutanosibligi va yetarliligini o'rganish qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;

e) Qo'mita markaziy apparati, hududiy hududiy boshqarma va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta'minlash va o'rganish qilish sohasida:

korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismi bo'yicha barcha tasarrufiy tashkilotlar xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Qo'mita tizimi xodimlari va fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibotlarda ishtirok etadi;

Qo'mita tizimidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartiblariga, shuningdek korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqishiga yo'l qo'yib beruvchi holatlar bilan bog'liq odob-axloq qoidalariga rioya qilinishini monitoring va o'rganish qiladi;

manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlarining holisligi va maqbulligi nuqtai nazaridan Odob-axloq komissiyalari faoliyatini tekshiradi;

amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va o'rganish tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi.

f) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va ishtirok etuvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish sohasida:

aholining xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

Qo'mita zimmasiga qonun hujjatlari bilan yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlari so'rovlariga javob berishda ishtirok etadi;

Zaruratga ko'ra mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

korrupsiyaviy jinoyatlarni bartaraf qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi vakolatli organlar vakillariga ko'mak beradi.

Bo'lim o'z vakolatlari doirasida vazir buyruqlari va topshiriqlariga asosan boshqa vazifa va funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Bo'limning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

9. Bo'lim xodimlarining huquqlari va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek, ushbu Nizom bilan tartibga solinadi.

10. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish uchun o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

Qo'mita markaziy apparati, uning hududiy organlari, tasarrufidagi korxona, muassasa va tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda belgilangan tartibda ishtirok etish;

Bo'lim vakolatiga doir masalalarni bo'lim boshlig'i va Hay'at yig'ilishlarida ko'rib chiqish uchun taqdim etish hamda ushbu masalalarning muhokamasida ishtirok etish;

Qo'mita markaziy apparati, uning hududiy organlari, tasarrufidagi korxona, muassasa va tashkilotlarida Bo'lim tomonidan o'tkaziladigan o'rganishlarga Raisning ruxsati bilan Qo'mita tarkibidagi tuzilmalar hamda hududiy boshqarmalarning xodimlarini jalb etish;

ijro intizomini mustahkamlash maqsadida boshqaruv ish uslubi va usullarini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish va ko'rib chiqish uchun rahbariyatga taqdim etish;

ma'lumotlarni buzib ko'rsatishga, budjetga boshqa majburiy to'lovlarni to'lashga, shuningdek, budjet mablag'larini hamda Qo'mitaning moddiy yordam, ijtimoiy muhofaza, hududiy boshqarma va tuzilmalarni rivojlantirish va ko'zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg'armasi mablag'larini sarflashga aloqasi bo'lgan har qanday hujjatlardan foydalanish huquqiga ega bo'lish;

o'rganishlar o'tkazishda aniqlangan huquqbuzarliklar va kamchiliklar bo'yicha markaziy apparat, hududiy boshqarmalar va tuzilmalarining rahbarlaridan, xodimlaridan, mutaxassislaridan tushuntirish xatlari, ma'lumotlar hamda xizmatga oid boshqa hujjatlarni talab qilib olish;

tekshirish (taftish) va o'rganishlarda Qo'mitaning tarkibiy tuzilmalari va hududiy boshqarmalardagi hujjatlarini qonunda belgilangan tartibda olib qo'yish;

Qo'mitaning tarkibiy tuzilmalari va hududiy boshqarmalarida o'tkazilgan o'rganish va tahlillarda aniqlangan huquqbuzilishiga boshqa hududiy boshqarmalar va tuzilmalar faoliyatida yo'l qo'yilishining oldini olish maqsadida, ular bajarishi lozim bo'lgan aniq vazifalar hamda ushbu vazifalarni bajarish muddatlari va bajarish uchun mas'ullar bo'yicha Qo'mita rahbariyatiga takliflar kiritish hamda ushbu takliflar asosida rahbariyat tomonidan berilgan topshiriqlar ijrosi ustidan o'rganishni amalga oshirish;

Bo'limning Yagona axborot-resurs ma'lumotlar bazasi, tashqi manba ma'lumotlari hamda amaliyotda foydalanib kelinayotgan barcha dasturiy mahsulotlar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan o'zgartirish huquqsiz foydalanish;

o'rganishlar o'tkazishda Qo'mita tarkibidagi organlar va tashkilotlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari hamda unda saqlanadigan ma'lumotlardan foydalanish;

funksional vazifalarini lozim darajada bajarmagan, ichki tartib va mehnat intizomiga rioya qilmagan xodimlarga nisbatan choralar qo'rish to'g'risida Raisga taklif kiritish;

Qo'mita tizimidagi xodimlardan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalar, birlamchi va boshqa tasdiqlovchi hujjatlarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni so'rash, talab qilish va olish;

xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Qo'mita tizimi xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish;

mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlariga tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan takliflar kiritish;

tekshiruvlar o'tkazish, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaviy holatlar yuzasidan qilgan murojaatlarini o'rganishda barcha tasarrufiy tashkilotlarga moneliksiz kirib-chiqish, hujjatlarni talab qilish, Qo'mita tizimi xodimlaridan yozma tushuntirishlar olish, jinoyat alomatlari aniqlangan hollarda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlarning egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar barcha xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada

bajarmaganligi, Qo'mita tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, mehnat organlari xodimlarining odob-axloq qoidalarini buzganliklari, shuningdek, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik, xizmat majburiyatlarini bajarishda yuklatilgan vakolatlardan bosh tortganligi fakti yuzasidan vazirga ma'lumotnomalar kiritish;

barcha tasarrufiy tashkilotlarning korrupsiyaga oid majlislarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish, uning natijalarini belgilangan reglament va Qo'mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi talablariga muvofiqligi haqida fikr bildirish;

Qo'mitaning tarkibiy tuzilmalari va hududiy boshqarmalari yurituvdagi hujjatlardan vakolati doirasida va belgilangan tartibda foydalanish.

Bo'lim qonun hujjatlarida hamda Qo'mitaning ichki normativ hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadir.

11. Quyidagilar bo'limning majburiyatlari hisoblanadi:

o'z vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni hamda boshqa qonun va normativ hujjatlarni, Qo'mita Hay'at yig'ilishlarining qarorlari, Qo'mitaning ichki normativ hujjatlari va ushbu Nizom ijrosini tashkil etish hamda ta'minlash, shuningdek, ular ijrosining monitoringi va o'rganishini amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qo'rib chiqishda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish;

davlat, tijorat va xizmat sirlarini oshkor etmaslik;

Bo'lim tomonidan vazifa va funksiyalari bajarilishida xufiyona iqtisodiyotni yuzaga kelishi va korrupsiya holatlarini oldini olish bo'yicha tegishli, shu jumladan manfaatlar to'qnashuvini hal etish choralari ko'rish;

Qo'mitaning tarkibiy tuzilmalari va hududiy boshqarmalarida Bo'lim tomonidan o'tkaziladigan o'rganishlar o'tkazish davrida xato va kamchiliklarni haqqoniy, to'g'ri va xolisona tarzda aniqlash, aniqlangan holatlar yuzasidan ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda xizmat rahbariyatiga taqdim etish;

ish yuritishni belgilangan tartibda olib borish, o'rganish bo'yicha to'plangan hujjatlarning nusxasini qonun hujjatlarida belgilangan muddatda saqlash hamda hisobini yuritish.

Bo'lim qonun hujjatlarida hamda Qo'mitaning ichki normativ hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham bajaradi.

12. Bo'lim xodimlari:

o'z funksional vazifalarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi;

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, ushbu Nizom, Qo'mitaning ichki normativ hujjatlari talablariga rioya qilmaganligi;

ijro intizomini buzganligi;

rahbariyat topshiriqlarining o'z vaqtida amalga oshirilishi ustidan zarur o'rganishni ta'minlamaganligi;

qonun hujjatlariga muvofiq davlat, tijorat va xizmat siriga rioya etmaganligi uchun belgilangan tartibda javob beradi.

Bo'lim xodimlari qonun hujjatlarida hamda Qo'mitaning ichki normativ hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda ham javobgar bo'ladi.

4-bob. Bo'lim faoliyatini tashkil etish

13. Bo'limga Rais buyrug'i bilan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

14. Bo'lim boshlig'i:

Bo'lim faoliyatiga rahbarlik qiladi, uning ishini tashkil etadi;

Bo'lim yuklangan vazifalarning bajarilishi uchun javob beradi;

Bo'lim xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi va ularning zarur darajada bajarilishini o'rganish qiladi;

Bo'lim xodimlariga beriladigan mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar koeffitsientlari, rag'batlantirish hamda moddiy yordam miqdori va shakllari bo'yicha belgilangan tartibda takliflar kiritadi;

shtatlarni shakllantirish, ishga qabul qilish, lavozimdan lavozimga o'tkazish va ishdan bo'shatish, Bo'lim xodimlarini moddiy rag'batlantirish va mukofotlash, xodimlarning faoliyatini baholash orqali ularga moddiy yordam ko'rsatish, shuningdek zimmasiga yuklatilgan vazifalarni lozim darajada bajarmagan yoki muddatida ijrosini ta'minlamagan xodimlarga nisbatan chora ko'rish to'g'risida Raisga takliflar kiritadi;

qonun hujjatlariga va ushbu Nizomga muvofiq Bo'lim faoliyatiga tegishli boshqa masalalarni hal qiladi.

15. Bo'lim xodimi Rais tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan bosh mutaxassisi bo'ladi.

16. Bo'lim boshlig'i vakolatlarini u bo'lmagan vaqtda vazifalar taqsimotiga binoan Bo'limning bosh mutaxassisi amalga oshiradi.

17. Bo'lim faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlanadigan yillik va joriy ish rejalari asosida olib boradi.

18. Bo'lim choraklik, yarim yillik, 9 oylik va yillik faoliyati yakunlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tahliliy hisobot tuzadi hamda uni Raisga taqdim etadi.

19. Bo'limga qabul qilishda va bo'limda xizmatni o'tash chog'ida xodimlarga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi umumiy talablari hamda ichki normativ hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa maxsus talablar tatbiq etiladi.

20. Bo'lim xodimlariga tadbirkorlik faoliyatining har qanday turlari bilan shug'ullanish, boshqa tashkilotlarda o'rindoshlik bo'yicha ishlash taqiqlanadi, ilmiy, o'qituvchilik va ijodiy faoliyat bundan mustasno.

5-bob. Moddiy ta'minot va rag'batlantirish

21. Bo'lim xodimlarining ish haqi lavozim maoshidan, uzoq xizmat muddati uchun ustamalardan, dam olish va bayram kunlari ishga jalb qilinganligi uchun to'lovlar, boshqa ustama, qo'shimcha haqlardan iborat bo'ladi hamda u qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lanadi.

22. Bo'lim xodimlariga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan mehnatga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish turlari belgilangan tartibda tatbiq etiladi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

23. Bo'lim boshlig'i Rais oldida bo'lim faoliyati to'g'risida muntazam ravishda hisobot beradi.

24. Ushbu Nizomga rioya etilishini o'rganish qilish Rais tomonidan amalga oshiriladi.

25. Bo'limni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.